

SIRDARYO VILOYATI TA`LIM SOHASI

MAKTABGACHA TA`LIM.




Maktabgacha ta`lim muassasasi (MTM) – bu uch yoshdan yetti yoshgacha bo`lgan bolalarni tarbiyalash, o`qitish, nazorat qilish, parvarish qilish va sog`lomlashshtirishni ta`minlaydigan ta`lim muassasasi turi. Ma`lumki, uzluksiz ta`limning boshlang'ich qismi hisoblanadigan maktabgacha ta`lim bolalarning sog`lom o'sishi va tizimli o`qitishga tayyorlanishida muhim o'rinni tutadi. 2020 yil 1 yanvar holatiga viloyatda 186 ta maktabgacha ta`lim muassasalari mavjud bo`lib, ulardagi guruqlar soni 1174 ta, joylar soni 23985 tani tashkil etgan. Jami maktabgacha ta`lim muassasalarining 86 tasi shahar, 100 qishloq joylarda joylashgan.

2019- yilda Sirdaryo viloyatida maktabgacha ta`lim muassasalarining asosiy ko`rsatkichlari, birlik


Maktabgacha ta`lim muassasalari soni	O'rinlar soni	Bolalar soni	Ulardan qizlar
186	23985	30359	14365
Shahar joylarda			
86	13375	15700	7342
Qishloq joylarda			
100	10610	14659	7023

2019- yilda Sirdaryo viloyatining shahar va qishloq joylaridagi maktabgacha ta’lim muassasalari soni




2020- yilning 1- yanvar holati bo'yicha, viloyatning maktabgacha ta’lim muassasalarida 30 359 nafar tarbiyalanuvchilar bo'lib, ularning 14 365 nafari qizlarni 47,3% tashkil qiladi. Maktabgacha ta’lim muassasalarida 2 672 nafar pedagog xodimlar faoliyat ko'rsatmoqda.

2020- yilning 1- yanvar holatiga maktabgacha ta'lim muassasalaridagi bolalar soni




Sirdaryo viloyatining shahar va tumanlari bo'yicha tarbiyalanuvchi bolalar soni (birlikda)



Maktabgash ta'lim muassasasi pedagog xodimlari

Maktabgacha ta'lim muassasasi pedagog xodimlari 2672 tani tashkil qilib ulardan 19,4% oliy ma'lumotga ega bo'lib, maktabgacha ta'lim muassasasida 15 yildan ortiq faoliyat ko`rsatgan pedagog xodimlari 19,9% tashkil qilib ulardan qishloq joylar 8,3% tashkil qiladi.

2019- yilda maktabgach ta`lim muassasalaridagi pedagog xodimlar ish staji



**Ijtimoiy soha va barqaror rivojlanish
statistikasi bo'limi Tel: 67-236-86-26**